

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MAHALLIY ISHLAB CHIQUARISH
HAJMINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

Karimbayev Jamshidbek Quvandiq o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.04.2026

Revised: 19.04.2026

Accepted: 20.04.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Mahalliy ishlab
chiqarish, strategik
infratuzilma,
innovatsiyalar, ishlab
chiqarish,
samaradorlik.*

Ushbu maqolada mahalliy ishlab chiqarishning mahalliy va jahon bozoridagi o'rni va bu ishlab chiqarishdagi raqamli transformatsiyaning o'rni qa'y tarzda ekanligi, ishlab chiqarishdagi raqamli infratuzilmaning o'rni strategik rejalashtirishni bosqichma bosqich amalga oshirish ,bu ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarning o'rni, umumiy muvozanat va samaradorlikni ishlab chiqarishni amalga oshirishdagi o'rni va O'zbekistonda raqamli transformatsiyaga bog'liq ishlab chiqarishni korxonada va sanoatda rivojlantirish talab va takliflari ishlab chiqilgan.

Kirish

Iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun uning raqamli infratuzilmasini ya'ni raqamli transformatsiyani korxonada faoliyatiga tatbiq qilish va uni rivojlantirish choratadbirlarini ilgari surish bu iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya bu jahon bozori ba'liki O'zbekistonning ham mahalliy ishlab chiqarish uchun turtki bo'ladigan asosiy unsur bo'lib xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yana bir muhim atama bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya global rivojlanishning yuragi hisoblanib davlat bu kabi jarayonlarni amalga oshirish uchun qarorlar qabul qilishmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash ishlab chiqarish tezligi, unumdorligi,

mahsulot sifatini jahon bozorida yana bir karra muhim bosqichga olib chiqdi. Bu esa o'z navbatida milliy mahsulotning eksport hajmini oshirdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir" farmonlar, yangi raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga joriy etish, shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda [1]. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va umumiy iqtisodiy rivojlanish uchun muhim qadamlar hisoblanadi.

Shu bilan birga raqamli transformatsiya foydali taraflari bo'lgani kabi salbiy taraflari ham mavjud. Bular tizim havfsizligi, korxonada strategik rejalashtirish mavjud bo'lmasa, ishlab chiqarishdagi bir qator tartibsizliklarni keltirib chiqaradi.

Raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, vavfsizlikni ta'minlash kabi muammolar davlatning ishini bir muncha qiyinlashtirmoqda, bu esa qo'shimcha vaqt va mablag' talab qiladi. Bu esa vaqti kelib korxonada byudjetining defitsiti (taqchilligi) ga sabab bo'lishi mumkin. Mahalliy ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishning yana bir muhim jihatlaridan biri bu - strategik rejalashtirishdir.

Strategik rejalashtirish ko'plab korxonalar tomonidan qo'llaniladigan mashhur jarayondir. Bu tashkilotingiz maqsadlari, jamoasi va o'sishi haqida ma'lumot berish usulidir. Mahalliy ishlab chiqarishda korxonada aniq maqsadlarga ega bo'lishi kerak. Bu rivojlanishning muhim yo'riqnomasidir, shu bilan korxonada o'zining samaradorligiga erishadi. Strategik reja tuzish bu biznes rejalarning amalga oshishi uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi

Strategik rejalashtirish quyidagilarni mujassamlashtiradi:

1. Aniq maqsadlarni belgilaydi va rejalarni tartiblashtiradi
2. Qarorlarni tez qabul qilish va javob berishni tezlashtiradi
3. Ishlab chiqarishdagi resurslar potensialining isrof bo'lishini kamaytiradi
4. Bu sizga qarorlar qabul qilishni beradi va korxonada qolgan raqobatchilardan ustun bo'lasiz.

PEST tahlili

Strategik rejalashtirishda PEST tahlili deb nomlangan vosita mavjud. Bu jamoalarga biznesni rejalashtirishda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatlarni hisobga olishga yordam beradi. Aksariyat hollarda ular huquqiy va ekologik omillarni qo'shib, uni PESTLE tahliliga aylantiradilar. PEST tahlilidan yaxshi foydalanish uchun sizga ushbu turli omillarni biladigan ishchi hodimlarning ko'pligi bu korxonaning foydasiga ishlaydi.

Bundan tashqari SWOT tahlil ham mavjud bo'lib bu tahlil kompaniya yoki sanoat tarmoqlari faoliyatining imkoniyatlari, xavflari, kuchli tomonlari, zaif tomonlarini tahlil qiluvchi usul hisoblanadi. Bu kabi tahlil usullari korxonadagi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardan hisoblanadi

Yangi ishtirokchilar va ularning o'rnini bosuvchi kompaniyalarning tahdidini, yetkazib beruvchi va xaridor kuchini o'z ichiga oladigan yana bir tahlil usuli bu Porterning 5 ta kuchi deb nomlanadi.

Mahalliy ishlab chiqarishda bu tahlillardan foydalaniladi.

Asosiy qism

XXI asrning uchinchi o'n yilligi dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi vaularning barcha iqtisodiyot tarmoqlariga singib borishi davrida kichik korxonalar ham raqamli transformatsiya jarayonidan chetda qola olmaydi. Raqamli transformatsiya mahalliy ishlab chiqarishning barcha sohalariga integratsiya qilish va faoliyat yurgizish bilan chambarchas bog'langandir [2].

Raqamli transformatsiya – bu tashkilotlarning o'z operatsiyalarini o'zgartirish va mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatadigan yangi biznes modellarini yaratish uchun raqamli texnologiyalarni qabul qilish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Texnologik o'zgarishlarning ortib borayotgan sur'ati bilan raqamli transformatsiya kompaniyalar uchun o'z sohalarida raqobatbardosh va dolzarb bo'lib qolishning asosiy strategiyasiga aylandi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar mahalliy ishlab chiqarish sohasini tubdan o'zgartirib, xom-ashyo va resurslarni boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bugungi kunda har bir mamlakatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bunda raqamli platformalarning roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalar ishlab chiqarishni individual yondashuv, raqamli texnologiyalarga moslashtirish, interaktiv ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish va xom ashyo sifatini baholashda mijozlar fikrini o'rganish imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Raqamli transformatsiya va raqobat muhitidagi sifat o'zgarishlarini baholashda bevosita "Raqamli ulush" statistikasi har doim ham ochiq e'lon qilinavermaydi. Sababi raqamli transformatsiya jarayonlarining hammasi ham kiberxavfsizliklardan xoli emas. Shunga qaramay, kadrlar va bozor infratuzilmasi bo'yicha ko'rsatkichlari raqamli kanallashuvning muhim proksilarini beradi: 2025-yil 1-iyul holatida sug'urta agentlari soni 4 161 tadan 3 442 taga kamaygan (-17,3%), brokerlar soni esa 10 tadan 11 taga (+10,0%) ko'paygan, aktuariylar 5 tadan 7 taga (+40,0%) oshgan. Bu tendensiya bozorning "Ko'p sonli agentlik sotuvlari" dan ko'ra, ko'proq professional vositachilik, risk-analitika va hisob-kitob

intizomiga tayanuvchi modelga o'tish ehtimolini kuchaytiradi; amaliy jihatdan bunday o'zgarishlar masofaviy sotuvlar, raqamli andarrayting, kleymlar jarayonini avtomatlashtirish hamda ma'lumotlarga asoslangan tariflash kabi raqobat instrumentlari bilan uyg'unlashganda bozor samaradorligini oshiradi. Xalqaro reyting tahlilida ham O'zbekistonda mukofotlar o'sishi fonida underwriting-risk darajasi yuqori segmentlarning kengayishi va nazorat talablari kuchayishi ehtimoli qayd etilgani raqamli transformatsiyani "Tez o'sish" emas, balki "Barqaror va nazorat qilinadigan o'sish" mantiqida olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Bu mamlakatimizning mahalliy ishlab chiqarishining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi ishlab chiqarish va eksport sohalarini raqamli texnologiya va transformatsiyalar bilan rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti bilan raqobatlasha oladigan darajaga olib chiqadi.

Mahalliy ishlab chiqarishda investitsiyalarning roli. Mahalliy ishlab chiqarishga investitsiya qilish — milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va barqaror daromad olishning samarali usullaridan biridir. Global ta'minot zanjiridagi o'zgarishlar va mahalliy ishlab chiqarishga bo'lgan talabning oshishi sababli, bu yo'nalish bugungi kunda yanada ahamiyat kasb etmoqda [3]. So'nggi yillarda mamlakatda faol investitsiya va tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2017 — 2019-yillarda iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,1 barobarga, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga 2,8 barobarga ortgan. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi investitsiyalar ulushi 2016-yildagi 21 foizdan 2019-yil yakuniga ko'ra 38 foizdan ko'proqqa o'sdi. Ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi hajmi 1,7 barobarga oshdi.

Strategik infratuzilma. Innovatsiyalar esa korxonaning zamon bilan hamqadam bo'lishini, mahsulot va xizmatlarni takomillashtirishini ta'minlaydi. Shunday ekan, ushbu omillarni birgalikda kompleks boshqarish — strategik rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan bir qatorda, korxonalar oldida resurslarni maqbul taqsimlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish kabi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi. Raqobat kuchayib borayotgan bozor sharoitida korxonalar faqat mavjud imkoniyatlarga tayangan holda emas, balki strategik resurslardan samarali foydalangan holda o'z ustunligini yaratishi zarur. Bunda, bir tomondan, energiya, xomashyo, ishchi kuchi kabi an'anaviy resurslardan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan esa, texnologik yangilanish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi infratuzilmaning


texnik holati, logistik tizimlar va axborot infratuzilmasi ham korxonalar samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi [4].

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Raqamli transformatsiya – bu kelajak sari tashlanayotgan qatʼiy qadamdir. Bu jarayon orqali nafaqat texnologik yangiliklar joriy qilinadi, balki boshqaruv madaniyati, mehnat unumdorligi va xizmatlar sifati tubdan oʻzgaradi. Shuning uchun davlatlar, tashkilotlar va jamiyatlar bu oʻzgarishlarga tayyor boʻlishi, oʻz strategiyasini aniqlab olishi va inson resurslarini zamonaviy talablar asosida tayyorlashi zarur [5].

2-rasm

Raqamli transformatsiyani Kichik va Oʻrta biznes uchun amalga oshirilgan soʻrovnoma natijalari.



Bu kabi bir qator raqamli transformatsiyaning rivojlanishi korxonalar umuman olganda butun jahon miqyosida sezilarli darajada oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Bu kabi jarayonlar rivojlanishni shu qadar jadallashtirdiki hozirgi paytda butunjaxon korxonalar tashkilotlarining 80-85 foizi inson mehnatiga emas, balki raqamli transformatsiyaga ixtisoslashdi va bu ixtisoslashuv hozir ham davom etmoqda. Bu kabi oʻzgarishlardan kutilgan maqsad va gʻoyalarning asosini mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish va koʻrsatishni tezlashtirish va resurslardan unumli foydalanish boʻlib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalarning salbiy taraflaridan ijobiy taraflari ko'pligi sababli jahon korxonalarining ko'pchiligi bunga ixtisoslashmoqda. Bu kabi texnologiyalar qo'l mehnatiga qaraganda ishni ancha tez amalga oshiradi, charchash nimaligini bilmaydi. Shu sabab ularning ish unumdorligi yuqori baholanadi.

Zamonamiz jadallik bilan rivojlanayotgani uchun bu kabi bir qator yirik o'zgarishlar mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda deb aytsak yanglishmagan bo'lamiz.

Yuqoridagi ma'lumotlardan aniq bo'ladiki rivojlanayotgan korxonaning raqamli infratuzilmasini ishlab chiqishda strategiyalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu sabab ularning iqtisodiyoti yuqori o'rinda turadi.

Bundan tushuniladiki mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun raqamli transformatsiya va axborot almashinuvunu yo'lga qo'yish bir qator yengilliklarga sabab bo'ladi. Jahonning yetakchi ishlab chiqaruvchi korxonalari ham bu darajaga raqalashtirishga ixtisoslashuv orqali erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi axborot tizimi (www.lex.uz).

2. Raconteur. (2024). Digital transformation: does it still have any meaning in 2024? Raconteur media.

3. <https://uznetix.com/tpost/> ma'lumoti

4. <https://zenodo.org/> ma'lumotlariga asosan yozildi

5. <https://global-science-review.com/>